

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARINI INKLYUZIV FAOLIYATGA TAYYORLASHNING METODIK XUSUSIYATLARI

Z.M.Umarova¹

Abstract. Maqolada maktabgacha yoshdagi alohida yordamga muhtoj bolalar bilan maktabgacha ta'lim takilotlarida olib boriladigan ilmiy-metodik ma'lumotlar tahlil qilingan. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan olib boriladigan ishlarni integratsiya asosida tashkil etish orqali samaradorlikka erishish mumkinligi aniq ma'lumotlar asosida bayon etilgan. Inklyuziv ta'lim har bir kishidan doimiy ijodiy hissa qo'shishni talab qiladi va uning barcha ishtirokchilari pedagoglar, ota-onalar, bolalariyat ta'limning ijodiy jarayoniga jalb etiladi.

Keywords: *inklyuziv ta'lim, maktabgacha ta'lim, psixologik yordam, korreksiya, defektolog, maxsus dastur, qobiliyat, kamolot.*

Introduction.

Inklyuziv ta'lim – ta'lim tashkilotlari uchun barcha bolalarga ta'lim berish imkoniyatidir. Ushbu sharoitda alohida ehtiyojli bolalarni integrasiyalash va rehabilitasiya qilish, har bir bolaning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ularga mos samarali inklyuziv ta'lim turini tanlash lozim. Inklyuziv ta'lim bolalarning turli ehtiyojlarini va qobiliyatlari, jumladan, ularni o'rganish usullari va bosqichlaridagi farqlarni aniqlaydi va ularning ehtiyojlarini qondiradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosi insonparvarlik g'oyalariga asoslangan bo'lib, bu borada imkoniyati cheklangan bolalarga qaratilayotgan e'tibor diqqatga sazovar. Nogironligi bo'lgan bolalarning jamiyatga tez integrasiyalashuvida maktabgacha ta'limdan bunga e'tibor qaratish maqsadni amalga oshirishini ta'minlovchi yo'l hisoblanadi.

Bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalarni ham boshqa tengdoshlari qatorida maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qatnashi va sog'lom bolalar bilan birga do'st tutingan holda birga o'ynab, ta'lim olishlari, ularning sog'ligini yaxshilanishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatishi fanda isbotini topgan.

Imkoniyati cheklangan bolalarga umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya berishga yo'naltirilgan ustuvor tamoyili bunday bolalarning ta'lim olishi uchun imkoniyatlar yaratish va ularning ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim berishni umumiy ta'limning bir qismi sifatida qarashi va unga mos metodlarini tanlashdir. Ammo, bugungi kunda umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning barchasi inklyuziv ta'lim

¹ MTMRMQTMOI "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrası katta o'qituvchisi



talablarini egallamaganligi tufayli pedagoglar bir qator qiyinchiliklarga duch kelayotganligi hech kimga sir emas. Umumiy turdagi ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni zamon talablari darajasida yuqori bilim va ko'nikmalarga, shuningdek, ijodiy salohiyatga ega raqobatbardosh pedagoglarni tayyorlashni talab qiladi.

Shunday qilib, maxsus ehtiyojli bolalar ham jamiyatning to'laqonli va teng huquqli a'zosi ekanligi e'tirof etilib, ular ta'limida alohida yangicha yondashuv maydonga keldi. Bu ta'lim tizimlari barcha bolalarning tili, dini, millati, ijtimoiy kelib chiqishi, irqi, jismoniy va ruhiy holatlaridan qat'iy nazar ta'limga jalb etishni ko'zlovchi "inklyuziv" ta'lim nomi bilan ataldi.

Inklyuziv ta'limning maqsadi – har bir bolaga teng huquqlilik asosida bilim olish imkoniyatini yaratishdir.

Ushbu sharoitda yordamga muhtoj bolalarni integrasiyalash va reabilitasiya qilish, har bir bolaning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ularga mos samarali inklyuziv ta'lim turini tanlash lozim.

Inklyuziv ta'limning o'ziga xos jihatlari inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari mavjud bolalarni ham sog'lom bolalardan kam emasligini inobatga olgan tarzda ular bilan individual ish olib borish orqali imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qilingan imkoniyati cheklangan bola bilan alohida ish olib borish zarur bo'ladi.

Har bir bola o'ziga xos bir olam, chunki ular turli xil oila va muhitda kamol topmoqda, ularning maktabgacha ta'lim tashkilotiga moslashish davri ham shunga ko'pa turlicha bo'ladi. Shulardan kelib chiqqan holda rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari mavjud bolalarga ham ularning sog'ligini inobatga olgan tarzda muomala qilish, maktabgacha ta'lim tashkilotiga moslashishiga ko'maklashish zarur. Sog'lom bolalar bilan ham rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari mavjud bola bilan do'stona munosabatda bo'lishni o'rgatish, unga ba'zi bir hollarda ko'maklashish lozimligini uqtirib borish zarur. Bunday jarayonda imkoniyati cheklangan bolaning tevarak-atrofdagi do'stlarining unga bo'lgan iliq munosabatlari uning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqishiga o'zi ham o'zi uchun zarur bo'lgan ishlarni mustaqil bajarishga bo'lgan intilishlari ortadi.

Bolalar bilan olib boriladigan ta'limiy o'yin faoliyatlari jarayonida rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalaridan o'rinli foydalanish rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari mavjud bolalarning yashirin qobiliyatlarini namoyon etishlariga imkon yaratadi. Shuningdek, bugungi tezkor taraqqiyotlar davrida bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'limiy, ma'naviy, ruhiy va jismoniy holatlarini yaxshilashga qaratilgan, xususan imkoniyati cheklangan bolalarning umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom bolalar bilan bir qatorda ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu texnologiyani ta'limiy o'yin faoliyatiga tadbiq etish orqali sog'lom bolalar bilan birga imkoniyati cheklangan bolalarda ham o'z qiziqishlariga ko'pa bilimlarni ko'nikmaga aylantirish orqali ularda o'z imkoniyatlariga ishonchni kamol toptiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishlari bilan bir qatorda ularda o'zlikni anglash, ijodkorlik, izlanuvchanlik ko'nikmalari bilan birga ma'naviyatini ham yuksaltirishga imkon yaratiladi. Maktabgacha yosh davri bolaning keyingi hayoti uchun



poydevor vazifasini o'tashini hisobga oladigan bo'lsak, aynan shu davrdan rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari mavjud bolalarda ong, tafakkur, dunyoqarash va ma'naviyatni rivojlantirib borish sog'lom bolalar qatori imkoniyati cheklangan bolalarning rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi rivojlantiruvchi markazlarda olib boriladigan amaliy faoliyat turlari ham bevosita bolaning shaxs sifatida kamol topishiga qaratilishi lozim. Markazlarda turli didaktik vositalar va o'yinchoqlar yordamida olib boriladigan amaliy faoliyatlari ham bevosita bilimlarni mustahkamlash va amalda qo'llash ko'nikmalarini kamol toptirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Shundagina bolalar, xususan, rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari mavjud bolalar ham ta'limiy o'yin faoliyatida olgan bilimlariga tayangan holda tasavvur va tafakkur uyg'unligida, o'z qo'llarida biror-bir narsalarni yaratadilar, bu jarayon bola uchun o'ziga xos ijod jarayoni bo'ladi va bolada o'ziga ishonch ortadi hamda ijobiy ma'nodagi "Men" konsepsiyasini rivojlantiradi. Imkoniyati cheklangan bola ham boshqa tengdoshlari qatori o'zining nimagadir qodirligini anglaydi va hayotga qiziqishi ortadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat olib boradigan pedagogni inklyuziv ta'limga tayyorlashda ularga ta'lim texnologiyalari bilan bir qatorda shaxs psixologiyasi, defektologiya va maxsus pedagogikadan ham ma'lumotlar berib borish zarur deb bilamiz. Chunki inklyuziv ta'limning sifati kadrlarning bilimiga va tajribasiga bog'liqdir. Pedagog ta'limiy o'yin faoliyatini tartibga solish metodlari va shakllarini puxta o'zlashtirishga imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash ko'nikmalarini egallagandagina bu sohada sifat va samaradorlikka erishadi. Inklyuziv ta'lim sharoitida faoliyat yuritadigan maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari malaka oshirish jarayonida bolalar bilan alohida ishlashga tayyorgarlik, ularning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda har biri bilan individual tarzda tizimli ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni olib borish va ta'limiy o'yin faoliyatida bolalarga beriladigan ma'lumotlarni bolalarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ularga moslashtirish malakalarini egallashlari lozim bo'ladi.

Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogi inklyuziv ta'lim bo'yicha o'z vazifalarini anglashi, imkoniyatlarini to'g'ri yo'naltira bilishi, yuz berishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni oldindan his qilgan tarzda ularni bartaraf etish malakalarini egallashlari talab etiladi.

Inklyuziv ta'limga jalb etilgan rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalar bilan amalga oshiriladigan ish usullari sirasiga birlamchi tashxis, yakka va guruhli mashg'ulotlarni o'tkazish kiradi.

Birlamchi tashxis orqali korreksion-pedagogik hamda rehabilitasiya tadbirlarini o'tkazish yuzasidan individual yo'nalishni ishlab chiqishga doir dastlabki tavsiyalar beriladi, korreksion ish yo'nalishlari hamda yordamning xususiy shakllari belgilanadi.

Yakka tartibda mashg'ulotlar Bolaning individual yo'nalishiga muvofiq rivojlanishidagi kamchiliklarini e'tiborga olgan holda kundalik ravishda bola bilan olib boriladi. Mazkur mashg'ulot davomida, bolalardagi asosiy nuqson turidan tashqari, kuzatiladigan ikkilamchi nuqsonlar korreksiyanadi.

Frontal mashg'ulot jarayonida defektolog ta'limiy-tarbiyaviy ishlar bilan bir qatorda korreksion ish usullaridan foydalangan holda mashg'ulotni tashkil etadi.



rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limi asosan bolalarning yashash joyiga yaqin bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etilishi, bunday tashkilotlar barcha bolalarning turli jismoniy ehtiyojlari, yakka xususiyatlari, ularning qobiliyatlari, o'qitish usullari va ta'lim bosqichlaridagi farqlarni aniqlab, ularning imkoniyatlari, o'zlashtirish darajalarini inobatga olgan holda, individuallashtirish ta'lim-tarbiya tizimini tashkil etishi talab etiladi.

Integrasiyalashgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining jamoasi bir butun guruhni tashkil etadi. Uning tarkibiy qismi quyidagi uchta kichik guruhchalardan iborat: maktabgacha ta'lim tashkilot mutaxassislar, maslahatchi mutaxassislar va ma'muriyat.

Pedagogik jamoada quyidagi mutaxassislar bo'lishi maqsadga muvofiqdir: tarbiyachi-pedagog, logoped, defektolog (surdopedagog, tiflopedagog, oligofrenopedagog), psixolog, tarbiyachilar, musiqa va jismoniy tarbiya instruktori, kuzatuvchi-yordamchi pedagog-defektologlar kabi. Har yilning boshida maktabgacha ta'lim tashkiloti ma'muriyati tomonidan ularning har birini aniq vazifasi va o'zaro hamkorlik ish faoliyatining mazmuni hamda yo'nalishi belgilab beriladi. Masalan, logoped bolalarning nutqini frontal mashg'ulotlarida rivojlantirish, individual mashg'ulotlarda rivojlantirish, individual mashg'ulotlarda nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etish ishlarini olib boradi. Bolalardagi nuqson turiga ko'pa har bir defektolog nuqsonni korreksiyalash va bartaraf etish, tarbiyaviy-ta'limiy ishlarni olib borish vazifalarini o'taydi.

Psixolog bolalar ruhiyatini o'rganadi, ruhiyatdagi chegaralanish yoki buzilishlarini, orqada qolish sabablarini aniqlaydi, emotsional, his-tuyg'ulariga ijobiy ta'sir etish, o'zaro do'stona munosabat muhitini shakllantirish va rivojlantirish ishlarini amalga oshiradi. Bolalarning maktabga tayyorgarligini tekshiradi, ota-onalarga maslahatlar beradi, oila terapiyasini olib boradi. Bolalar bilan yakka tartibdagi mashg'ulotlar tashkil etadi, o'yin terapiyasini olib boradi. Doimiy ravishda o'z faoliyati doirasida barcha mutaxassislarga maslahatlar berib, psixolog yordamni tashkil etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda to'laqonli ta'lim-tarbiya muhitini yaratish uchun pedagoglar, defektolog-logopedlar, psixolog tibbiyot xodimlari va tashkilot ma'muriyatining to'laqonli, har tomonlama o'zaro hamkorligini oshirish zarur. Ta'limiy, tarbiyaviy va korreksion-rivojlantiruvchi vazifalarni hal etishda pedagogik ta'sir ko'p jihatdan korreksion-rivojlantiruvchi faoliyatning barcha yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislarning yaxshi muvofiqlashtirilgan ishiga bog'liq. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv guruhlarda barcha maktabgacha ta'lim tashkilot xodimlarining birgalikdagi faoliyati ularning har birining ta'sirini qo'shish va chuqurlashtirishga asoslanadi.

Yo'nalishni birlashtiruvchi guruhlarda ishni tashkil etishning muhim sharti-qulay sub'yekt-rivojlantiruvchi muhitni yaratish, tinch emotsional tus olish hamda tashkiliy-pedagogik talablarni bajarishdir. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun moslashtirilgan dasturni ishlab chiqish va joriy etish. Pedagog va bolalar, bolalar o'zaro va pedagoglar bilan do'stona muloqot muhitini majburiy yaratish zarur. Tarbiyachilar guruhdagi bolalarga g'amxo'rlik qilishni, ularni birgalikdagi faoliyatga, o'yinlarga jalb qilishni o'rgatadi. Faoliyat jarayoniga qiziqishni saqlab qolish va berilgan natijani olish maqsadida bolalar bilan o'tkaziladigan guruhlarda o'yin metodlaridan, ajablantiradigan vaziyatlardan va didaktik o'yinlardan keng foydalanish maqsadga muvofiq. Ijobiy



emotsional bo‘yoqdorlikni tashuvchi, yangi bilimlarga qiziqishni rivojlantiruvchi va bolalarni aqliy ish bilan shug‘ullanishni xohlovchi bunday didaktik o‘yinlarni tanlash kerak.

Bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotining ta’lim-tarbiya jarayoni bolalarga ham g‘amxo‘rlik, ko‘psatish, shuningdek, bilim, muhim hayotiy ko‘nikmalar, bolalarning shaxsiy sifat va qobiliyatlarini rivojlantirish, rivojlanishdagi nuqsonlarini korreksiyalash ta’lim-tarbiya jarayonlarini ta’minlaydi. Maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayoniga rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo‘lgan bolalarni kiritish o‘zgaradi, birinchi navbatda kattalarning bolalarga bo‘lgan munosabati - barcha bolalar "maxsus" emas, balki alohida xususiyatlarga va maxsus ta’lim ehtiyojlariga ega.

Inklyuziv ta’lim maktabgacha ta’lim oluvchilar o‘rtasida bag‘rikenglik, xayriya va o‘zaro hurmatni rivojlantiradi. Ta’lim jarayoni ishtirokchilari mavjud buzilishlariga qaramay, imkoniyati cheklangan bolalarning imkoniyatlarini ko‘rishga o‘rganadilar. Bu yondashuv bilan, pedagogika bir butun o‘zgarishlar sifatida, inklyuziv bo‘ladi, inklyuziv emas, balki nafaqat rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo‘lgan bolalar balki odatda rivojlanayotgan bolalar uchun bilim, ko‘nikma va qobiliyatini shakllantirishini tashkil etish jarayonida kiritilgan bo‘lishi kerak, aslida ta’lim bolalarni individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ta’lim jarayonini tashkil etish, yangi shakl va yo‘llarini yaratish talab qiladi.

Inklyuziv ta’lim har bir kishidan doimiy ijodiy hissa qo‘shishni talab qiladi va uning barcha ishtirokchilari – pedagoglar, ota-onalar, bolalar va ma’muriyat ta’limning ijodiy jarayoniga jalb etiladi. rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’limni muvaffaqiyatli amalga oshirish ta’lim tizimining o‘zida ijtimoiy model tamoyillariga asoslangan o‘zgarishlarni talab qiladi, jamiyat bolalar nogironligi va g‘ayrioddiy rivojlanishga salbiy munosabatni yengib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida to‘liq ishtirok etish uchun teng imkoniyatlar yaratishi kerak.

Tarbiyachi ko‘p vaqtni bolalar bilan o‘tkazadigan asosiy aktyordir. Uning ishiga o‘quv mashg‘ulotlari, bayramlar va ekskursiyalar o‘tkazish kiradi.

Pedagogik muloqotning har qanday shakli aniq belgilangan maqsadlarga ega bo‘lishi kerak.

Korreksion va rivojlantiruvchi-pedagogni barcha bolalarning qobiliyat va imkoniyatlarini rivojlantirishga va mavjud kamchiliklarni maxsus pedagogik-psixologik metodlar bilan tuzatishga aniq yo‘naltirishi lozim.

Pedagogning metod va metodlari mashg‘ulot muammolarini hal etishga erishadigan vositadir. Ular mohirona tanlangan va foydalanish kerak. Vosita va usullarni shunday birlashtirish yoki o‘zgartirish kerakki, shu bilan birga pedagoglar faoliyati turlarida o‘zgarish yuz bersin, toki dominant analizator o‘zgarsin, toki ish vaqtida iloji boricha ko‘p analizatorlar - eshitish, ko‘pish, motorika, xotira va moddiy idrok jarayonida mantiqiy tafakkur ishtirok etsin. Pedagoglarning xususiyatlarini hisobga olish mashg‘ulotning shakli va mazmunini, uning usul va metodlarini emas, balki tarbiyalanuvchining yutuqlarini baholashning me‘yoriy emas, balki shaxsiy, aloqadorligini ham o‘z ichiga oladi. Albatta, imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash, ularning psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.:O'zbekiston, 2012.-40 b.
2. O'zbekiston Respublikasi “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi 2008 yil 7 yanvardagi 139 conli Qonuni. <https://lex.uz/docs/1297315>
3. O'zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi 2019 yil 16 dekabrdagi 595 conli Qonuni. <https://lex.uz/docs/4646908>
4. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi to'plami. <https://lex.uz/docs/104720>
5. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya. <https://lex.uz/docs/2595909>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ 2707 sonli qarori <https://lex.uz/docs/3090103>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi “Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ–3261-sonli Qapopi. <https://lex.uz/docs/3334234>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada pivojlantirish bo'yicha Hapakatlap Ctpategiyaci to'g'risida»gi PF-4947-con Farmoni. <https://lex.uz/docs/3107036>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5198-con Farmoni. <https://lex.uz/docs/3362886>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ–4312-son Qapopi. <https://lex.uz/docs/4327235>
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 5938-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/4740345>
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 391-conli Qapopi. <https://lex.uz/docs/4333062>
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi “Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida”gi 802 – sonli Qapopi. <https://lex.uz/docs/5179335>
14. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 7 iyuldagi 4-sonli hay'at yig'ilishi qapopi bilan tasdiqlangan maktabgacha ta'lim muassasalari uchun «Ilk qadam». Maktabgacha ta'lim muassasalari davlat o'quv dasturi. Tuzuvchilar: I.V.Gposheva, L.G.Evctafeva, D. T. Mahmudova, SH. B. Nabixonova, C. V. Pak, G. E. Djanpeicova. – T.: MTV, 2018. – 69 bet.
15. Ayupova M.Y. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyotl Logopediya T-2007
16. Aliqoriyeva A.N. “Inklyuziv ta'limni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy masalalari” //“Ijtimoiy inklyuziya: bolalar ijtimoiylashuvdagi yangi yo'nalishlar” mavzusidagi Xalqaro Konferensiya.T.: 48-51 bet



17. Aliqoriyev N.S. “Inklyuziv ta’lim boshqaruvining asoslari” // “Ijtimoiy inklyuziya: bolalar ijtimoiylashuvidagi yangi yo‘nalishlar” mavzusidagi Xalqaro Konferensiya.T.: 46, 48 bet
18. Alimova SH.X. “Imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta’limni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish masalalari” // “Ijtimoiy inklyuziya: bolalar ijtimoiylashuvidagi yangi yo‘nalishlar” mavzusidagi Xalqaro Konferensiya.T.: 44-46 bet lar tomonidan tadqiq qilingan
19. Amirsadiova Sh.M. “Inklyuziv ta’lim-insonparvarlikka asoslangan ta’lim” // “Ijtimoiy inklyuziya: bolalar ijtimoiylashuvidagi yangi yo‘nalishlar” mavzusidagi Xalqaro Konferensiya.T.: 54-55 bet.

